TOSHKENT SHAHRI MIROBOD TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 31-oktabr | 325-14-199-Q/24 | Mirobod tumani hokimligi

Mirobod tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2025-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-otyabrdagi O‘RQ-642-sonli “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2020-y., 03/20/642/1396-son; 02.04.2021-y., 03/21/681/0264-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 14.03.2022-y., 03/22/759/0213-son; 18.05.2022-y., 03/22/770/0424-son; 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son) 38-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi 2020-yil 15-oktabrdagi O‘RQ-641-sonli "Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunining (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.10.2020-y., 03/20/641/1389-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son) 43-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomga (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi 11.12.2017 y., 09/17/965/0393-son) ijrosini ta’minlash maqsadida, shuningdek, tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi tomonidan 2025-yil uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining umumiy soni to‘g‘risidagi tashkilotlardan olingan ma’lumotlari asosida shakllantirilgan 2024-yil 24-sentabrdagi 26/02-01/07-1226-sonli taklifi va ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun 2025-yilga mo‘ljallangan band qilinishi kerak bo‘lgan ish o‘rinlari sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni belgilash bo‘yicha tumanda tuzilgan maxsus komissiyaning 2024-yil 27-sentabrdagi 1-sonli yig‘ilish bayoniga muvofiq,

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun 2025-yilda ish joylarining eng kam miqdori belgilangan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxati ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-642-sonli Qonunining 9-bobi, 38-moddasiga asosan tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam miqdori ilovaga muvofiq xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha soni 813 nafarni tashkil etadigan, shu jumladan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 89 ta;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 525 ta;

o‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 92 ta;

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 38 ta;

safarbarlik chaqiruvida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 46 ta;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 19 ta;

odam savdosi qurbonlari uchun 4 ta ish o‘rinlari zaxirasi belgilansin.

3. Ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiyena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlariga, shu jumladan, quyidagilarga muvofiq bo‘lishi kerak:

14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun – bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha majburiyatlar bajarilishini birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan ish o‘rinlari;

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun - ularning professional tayyorgarligiga mos bo‘lgan ish o‘rinlari;

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun – mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan va xodimga ularning sog‘ligi holatini va mehnat faoliyatiga to‘g‘ri kelmaydigan belgilangan zidliklar hisobga olingan holda mehnat operatsiyalarini to‘siqsiz bajarish imkonini beradigan ish o‘rinlari;

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun -ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

odam savdosi qurbonlari uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari.

4. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 31-mayda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3163) Buyrug‘iga asosan, “ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga — har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida haq to‘lash O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ajratilishi inobatga olinsin.

5. Ish o‘rinlarini band qiluvchi korxona va tashkilotlar rahbarlariga:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq ushbu qarorning ilovasida ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlasin;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ish bilan ta’minlash uchun 2024-yil yakunlanishidan 10 kun oldin band qilingan ish joylari umumiy miqdorining kamida 25 foiziga qo‘yilishi va tayyorligi ta’minlansin, shuningdek, bu haqda yil boshlanganga qadar tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qilsin;

muhtojlar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismiga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlansin, bu haqda tuman tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga birinchi chorak tamom bo‘lgandan keyin 10 kundan kechikmay xabardor qilsin;

tashkilot har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida axborot taqdim etsin;

tashkilot tomonidan muhtojlarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari tayyorligi to‘g‘risida axborot taqdim etilmasligi, teng darajada zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan soni hisobiga ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining amalda tayyor emasligi tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi tomonidan tuman hokimining qarori bajarilmasligi sifatida qaralishi lozimligi qayd etilsin.

6. Tuman hokimining muhtojlar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha ushbu qaror bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilot va korxonalarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanadi.

7. Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi mazkur qarorni besh kun muddatda qarorning ilovasida ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarning e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

8. Tuman Matbuot xizmati:

Mazkur qaror tuman hokimligining rasmiy veb saytiga joylashtirilsin.

9. Tashkilotlar rahbarlari tomonidan mazkur qarorni to‘liq bajarish yuzasidan qat’iy nazorat o‘rnatilsin.

10. Mirobod tumani hokimining 2023-yil 23-oktabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2024-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida”gi 336-14-199-Q/23-son qarori 2024-yil 31-dekabrdan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

11. Ushbu qaror 2025-yil 1-yanvardan kuchga kiradi.

12.Ushbu qaror yuzasidan kelib chiqadigan nizolar sud orqali hal qilinadi.

13. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Mirobod tumani hokimining birinchi o‘rinbosari A.Salaydinov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Sayfutdinov A.N**

Mirobod tuman hokimining
2024-yil 31-oktabrdagi
325-14-199-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun 2025-yilga ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha korxona va tashkilotlar ro‘yxati

№	INN	Tashkilot nomi	Xodimlar soni	Korxonada xaqiqatan yaratilgan maxsus ish o‘rinlari	Nogironlar uchun	Ko‘p bolalilar	Pensiya yoshiga yetib qolganlar uchun	Qo‘shin safidan qaytganlar uchun	O‘quv yurtini bitiruvchilar uchun	Jazo muddatini o‘tab qaytganlar uchun	Odam savdosi jabrlanuvchilar
Jami			88843	813	89	92	38	46	525	19	4
1	310920400	"TEMIRYO‘LINFRATUZILMA" AKSIYADORLIK JAMIYATI	36216	99	10	15	1	2	70		1
2	201052713	"TOSHKENT SHAHAR SUV TA`MINOTI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	4524	21		4			17		
3	308743271	"O`ZBEK GEOLOGIYA QIDIRUV" AKSIYADORLIK JAMIYATI	4321	16	2	1	1	1	11	0	
4	200547792	MIKROKREDITBANK AKSIYADORLIK-TIJORAT BANKI	3974	21	2	2		1	16		
5	202472894	"O`ZTEMIRYO`LYO`LOVCHI" AKSIYADORLIK JAMIYATI	2188	16	1	1	1	1	12		
6	305131885	"INTERNATIONAL FOODCHAIN" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	1894	22	1	3	1	1	15		1

7	201838002	"UNITEL" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT XORIJIY KORXONA	2087	31	1	1		1	28		
8	206942764	INVEST FINANCE BANK AKSIYADORLIK JAMIYATI	1708	32	4		6	1	21		
9	201052167	"O`ZELEKTROAPPARAT-ELECTROSHIELD" AKSIYADORLIK JAMIYATI	1244	25	1	6	2	2	14		
10	201079149	BALTON TRADING (ASIA) MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT SHAKLIDAGI XORIJIY KORXONA	1446	24	1	2			21		
11	201051951	"O`ZBEKISTON TEMIR YO`LLARI" AKSIYADORLIK JAMIYATI	3719	22	3	4			15		
12	305659529	"HYPER PARTNERS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT XORIJIY KORXONA	637	12		4	3	1	4		
13	201897254	RUHIY KASALLIKLAR KLINIK SHIFOXONASI	1066	19	1	5	4	2	5	2	
14	207318613	"TBC BANK" AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI	1543	39	4	2		1	31		1
15	201799978	"TIBBIYOT XODIMLARINING KASBIY MALAKASINI RIVOJLANTIRISH MARKAZINING KO`P TARMOQLI KLINIKASI"	885	13	2	2			8	1	
16	306330566	"IDEA CONCEPT GROUP" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	2426	15	1	1			13		
17	203607858	"O`ZTEMIRYO`LKONTEYNER" AKSIYADORLIK JAMIYATI	653	9	2	2		1	4		
18	201053901	"GARANT BANK"AKSIYADORLIK JAMIYATI	673	12	1	1			10		
19	200981365	O`Z.TEMIR YO`LLARI MARKAZIY POLIKLINIKASI	482	9	1			1	7		
20	201363967	"TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI" DAVLAT MUASSASASI	643	9	1		1		7		

21	204065852	TOSHKENT SHAHRIDAGI XALQARO VESTMINSTER UNIVERSITETI	515	9	1	1		1	6		
22	201992249	"MIROBOD TUMANI OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI" JAMOAT BIRLASHMASI	551	18	1	1	1	1	1	13	
23	202288236	"KAFOLAT SUG`URTA KOMPANIYASI" AKSIYADORLIK JAMIYATI	340	4	1				3		
24	306153834	"EPAM SYSTEMS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	573	6	1			1	4		
25	201121254	"O`ZLITINEFTGAZ" AKSIYADORLIK JAMIYATI	444	5	3				2		
26	300460884	"DAVLAT KADASTRLARI PALATASINING TOSHKENT SHAHAR BOSHQARMASI"	373	5	1		1		3		
27	204370355	"TOSHELECTROAPPARAT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	362	5	1			1	3		
28	202167236	KDB BANK UZBEKISTAN AKSIYADORLIK JAMIYATI	268	5	1	1			3		
29	309440142	"AVO SERVICES AND TECHNOLOGY" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	595	8	1			1	6		
30	306302569	"GEO RESEARCH AND DEVELOPMENT COMPANY" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	256	7		2			5		
31	302050181	"PAYME" AKSIYADORLIK JAMIYATI	233	6	2				4		
32	204569572	"IPLUS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	232	4		1			3		
33	207027936	"UZDIGITAL TV" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	197	4	1				3		
34	301230282	"SANFA PRODUCTS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	175	3	1				2		

35	302782276	"TREST-7" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	160	4		1			3		
36	302381768	"GANGA HEALTHCARE" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	131	6	1	1		1	3		
37	300055492	QURILISH KO`CHMA KOLONNA 017	97	2				1	1		
38	204463373	"CHENSON" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	124	5	1			1	3		
39	304866177	"BRAMIS PARTNERS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	113	4	1	1	1	1			
40	305083692	"FUTURE TRADING" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	118	4	1				3		
41	304788646	"PRINTUZ" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	60	2		1	1				
42	201052199	"ISSIQLIKELEKTRLOYIHA" AKSIYADORLIK JAMIYATI	131	3	1			1	1		
43	304727959	"QUANTO SERVICING" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	158	4					4		
44	200794455	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI X.S.SULAYMONOVA NOMIDAGI RESPUBLIKA SUD EKSPERTIZASI MARKAZI	275	10	8				2		
45	305445201	"MUXAYYO TRADE" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	96	4		1			3		
46	309028369	"FIRSTGROUP" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT XORIJIY KORXONA	806	19		4		3	12		
47	201012818	"MAXSUS SUG`ORISH USKUNALARINI TA`MIRLASH VA SAQLASH IXTISOSLASHTIRILGAN BOSHQARMASI" DAVLAT MUASSASASI	506	11	1	3	2		4	1	

48	308254105	"NEW RETAIL" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT QO`SHMA KORXONA	410	8	1	1	1		4	1	
49	302776014	"BEST QUALITY PRODUCTS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	405	8	1	1		1	4	1	
50	311214787	"ASR AND CO" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	342	7	1			1	5		
51	308798797	"PROFI UNIVERSITY" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	339	5	1			1	3		
52	306482544	"SINOMA HANDAN ENGINEERING" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	298	5	1			1	3		
53	310921201	"TEMIRYO‘LEKSPRESS" AKSIYADORLIK JAMIYATI	266	5	1			1	3		
54	201051785	"FOTON " AKSIYADORLIK JAMIYATI	239	5	1			1	3		
55	201053774	"O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI" DAVLAT MUASSASASI	1009	12	3	1	1	1	6		
56	207257279	AVO BANK AKSIYADORLIK JAMIYATI	207	4	1			1	2		
57	310037596	"MAXSUS MEXANIZATSIYALASHGAN YO'L STANSIYASI" UNITAR KORXONA	420	6	1	2		1	2		
58	310921201	"TEMIRYO‘LEKSPRESS" AKSIYADORLIK JAMIYATI	266	4	1	1			2		
59	205327872	"HUAWEI TECH INVESTMENT TASHKENT" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT SHAKLIDAGI XORIJIY KORXONA	226	5	1	1		1	2		
60	309016201	“UZUM BANK” AKSIYADORLIK JAMIYATI	198	5	1	1		1	2		
61	302846069	"IGRUSHKI DLYA NAS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	190	4				1	2		1

62	201122696	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGI	166	3		1			2		
63	205613819	"ASIA INSURANCE SUG`URTA KOMPANIYASI" AKSIYADORLIK JAMIYATI	151	3		1			2		
64	302332946	"TAR PHARM ALLIANCE" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	166	3	1				2		
65	309055289	"VERSUS NEXT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	174	3		1			2		
66	307042188	"HEX SOLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	156	3		1			2		
67	207094087	"SHOX MED CENTER" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	165	4	1	1			2		
68	202970267	"NORMA" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	144	3		1			2		
69	307184423	"TRUST-INSURANCE" AKSIYADORLIK JAMIYATI	130	3	1				2		
70	309164192	"OLTIN KON" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT QO`SHMA KORXONA	136	3				1	2		
71	302382268	"LIDER TEAM" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	134	3	1				2		
72	305598201	"ANCOR ASIA" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	128	3	1				2		
73	309588789	"GROUP ALPHA TEX" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	128	3			1		2		
74	308938677	"AR-GLOBAL-LOGISTIC" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	124	3			1		2		
75	207109366	"SOGDIANA TRANS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	127	3			1		2		
76	311101414	"TEMIRYO‘LKARGO" AKSIYADORLIK JAMIYATI	117	3			1		2		

77	305923492	"CONTINEO ASIA" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	102	2					2		
78	307829813	"SHIPCO TRANSPORTATION" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	166	2					2		
79	201052357	"TOSHKENT UNIVERMAGI" AKSIYADORLIK JAMIYATI	97	2					2		
80	200519218	"KOINOT-RADIO TEXNIKA MOLLARI" XUSUSIY KORXONA	179	3			1		2		
81	304238965	"GLOBAL EXPEDITED " MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	99	3			1		2		
82	309210523	"IT LOGISTIC-GLOBAL" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	99	3			1		2		
83	201929119	"ISHONCH SUG`URTA KOMPANIYASI" AKSIYADORLIK JAMIYATI	96	3			1		2		
84	200898357	"YER QA'RIDAN FOYDALANISH MARKAZI" DAVLAT MUASSASASI	84	3				1	2		
85	306914068	"NURLIKUM MINING UZBEK-FRENCH JOINT VENTURE" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT QO`SHMA KORXONA	84	3				1	2		
86	308745087	"THE WEWORK GROUP" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	96	3			1		2		
87	310448243	"UKLON UB" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT XORIJIY KORXONA	81	3			1		2		
88	303418124	"ENERGY OIL GROUP" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	75	3				1	2		
89	306170670	"ACTION-MCFR MEDIAGURUHI" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	80	3		1			2		
90	304986313	"ECOMMERCE" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	120	3		1			2		

91	306790295	"UZASSYSTEM" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT QO`SHMA KORXONA	66	2		1			1		
92	305940060	"ALTAIR BUILDING PARTNERS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	140	10	1	1		1	7		